

TALABALARDA NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV METODLAR QO'LLANILISHI*Ismoilov Usmonjon Baxramjon o'g'li**Andijon davlat pedagogika**instituti tayanch doktoranti**Usmonjon9994@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda nutq madaniyati va notiqlik mahoratini shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni tahlil qilinadi. Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda “debat”, “rol o'ynash”, “keys-stadi”, “aql hujumi”, “klaster”, “fishbone” kabi metodlarning didaktik imkoniyatlari yoritiladi. Interaktiv metodlar orqali talabalarda fikrni dalillash, auditoriya bilan muloqotga kirishish, nutqiy intonatsiya, emotsional ifoda va so'zlashuv etikasi kabi ko'nikmalarni shakllantirish shart-sharoitlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, notiqlik mahorati, interaktiv metodlar, talaba nutqi, debat, rol o'ynash, auditoriya bilan muloqot, emotsional nutq, kommunikativ kompetensiya

Annotation: This article analyzes the role of interactive methods in developing students' speech culture and oratory skills. It highlights the didactic potential of methods such as debates, role-playing, case studies, brainstorming, clustering, and the fishbone technique in fostering communication competencies. The article outlines how interactive strategies help students cultivate reasoning, audience interaction, speech intonation, emotional expressiveness, and communication etiquette.

Key words: speech culture, oratory skills, interactive methods, student speech, debate, role-play, audience interaction, emotional expression, communicative competence

Аннотация: В статье анализируется роль интерактивных методов в формировании речевой культуры и ораторских навыков студентов. Рассматриваются дидактические возможности таких методов, как дебаты, ролевая игра, кейс-стади, мозговой штурм, кластер и метод «рыбья кость». Также раскрываются условия формирования у студентов умений аргументации, взаимодействия с аудиторией, интонационного оформления речи, эмоционального выражения и речевого этикета.

Ключевые слова: речевая культура, ораторское мастерство, интерактивные методы, студенческая речь, дебаты, ролевая игра, взаимодействие с аудиторией, эмоциональная речь, коммуникативная компетентность

Kirish. XXI asr ta'limi jamiyatda o'z fikrini erkin, aniq, mantiqiy va madaniyatli ifoda eta oladigan, yuqori kommunikativ salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlashni talab qilmoqda. Bunday kompetensiyani shakllantirishda nutq madaniyati va notiqlik mahorati muhim omil bo'lib, bu ikki tushuncha o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi jarayon sifatida qaraladi. Talabada nutq madaniyatining shakllanishi uni jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga xizmat qiladi, notiqlik esa bu madaniyatni omma oldida namoyon qilish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda passiv, yodlovga asoslangan an'anaviy metodlar o'z samarasini yo'qotib borar ekan, interaktiv metodlar talaba fikrlashini faollashtirish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Interaktiv metodlar - bu o'quvchi va o'qituvchini faol muloqotga jalb etuvchi, bilim olishni subyektga aylantiruvchi texnologik yondashuvdir. Ushbu metodlar yordamida talaba o'z fikrini asoslash, mantiqiy bayon qilish, tinglovchini ishonitirish, auditoriyaga murojaat qilish kabi notiqlikka xos kompetensiyalarni amaliyotda o'zlashtira oladi.


O'zbekiston oliy ta'limi tizimida so'nggi yillarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu boradagi darslik va o'quv qo'llanmalarda og'zaki nutqni o'stirish, talaffuz madaniyatini oshirish, ovoz texnikasi, intonatsiya, artikulyatsiya, pauza, urg'u kabi fonetik mezonlarga asoslangan metodik tavsiyalar keng yoritilgan. Ayniqsa, "Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish" darsligida talaba shaxsida nutqni samarali shakllantirish yo'llari, nutq etikasini amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish yo'nalishlari aniq ko'rsatilgan. Bundan tashqari, pedagog shaxsining nutqiy madaniyati ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchi o'zining madaniy, emotsional va texnik jihatdan mukammal nutqi orqali talabaning og'zaki muloqot madaniyatiga bevosita namuna bo'la oladi. Chunki "o'qituvchining nutqi, uning shaxsiy timsoli orqali ko'proq ta'sir qiladi" degan tamoyil zahirida aynan nutq madaniyati vositasida shaxsiy namunadorlik yotadi. Demak, zamonaviy o'quv jarayonida nutq madaniyati va notiqlik mahoratini rivojlantirish faqat ma'ruza va dars bilan cheklanmay, balki talabani faol subyekt sifatida jarayonga jalb qiluvchi interaktiv metodlar orqali amalga oshirilishi dolzarb va samarali yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Asosiy qism. Pedagogik ta'lim tizimida shaxsning nutqiy faoliyati - uning tafakkuri, madaniyati, intellektual salohiyati, kasbiy qobiliyati va kommunikativ kompetensiyasining ajralmas ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Talabaning nutqiy imkoniyatlari qanchalik yuksak bo'lsa, uning muloqot madaniyati, fikr bildirishi, bahs-munozarada qatnashish salohiyati va ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyati shunchalik mustahkam bo'ladi¹. Shuning uchun bugungi pedagogik yondashuvlar markaziga talabaning o'z fikrini adabiy til me'yorlari asosida erkin, ta'sirli va madaniyatli ifoda eta olishini qo'yadi².

Nutq madaniyati - bu o‘zaro muloqotda fikrni aniq, lo‘nda, maqsadga yo‘naltirilgan va adabiy til me‘yorlariga amal qilgan holda ifoda eta olish san‘atidir. Uning negizida tilni to‘g‘ri qo‘llash, uslubiy moslik, orfoepik aniqlik, etiket me‘yorlariga rioya qilish, mantiqiy izchillik, estetik nafosat va hissiy uyg‘unlik yotadi³. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati - bu nafaqat chiroyli so‘zlash, balki ijtimoiy madaniyat, aqliy faollik, tilga nisbatan hurmat, muomala odobi va fikrni ta‘sirli ifodalash mahoratidir.

Notiqlik mahorati esa ushbu madaniyatning funksional shakli bo‘lib, u og‘zaki nutq orqali tinglovchiga ma‘lum bir g‘oya yoki fikrni tushunarli, ta‘sirli va ishonarli tarzda yetkazish qobiliyatini anglatadi. Notiqlik shunchaki so‘zlash emas - bu murakkab kommunikativ, psixologik va estetik jarayon bo‘lib, u o‘z ichiga nutq texnikasi, hissiy holat, ijtimoiy ong, tana tili, mimika, ovoz balandligi, pauza, urg‘u va oratorlik etikasi kabi ko‘plab omillarni oladi.

Zamonaviy o‘quv adabiyotlarida notiqlik madaniyati “o‘rganiladigan, ijtimoiylashadigan va ongli shakllantiriladigan” kompetensiya sifatida talqin qilinadi. Bu kompetensiyaning shakllantirishda uchta ustuvor yo‘nalish ajralib turadi:



Shu o‘rinda qadimgi ritorika fanining yondashuvlari, ayniqsa Aristotelning "logos", "pathos", "ethos" kategoriyalari ham dolzarbligicha qolmoqda. Logos - mantiqiy asos, pathos - hissiy ta‘sir, ethos - notiqning axloqiy obro‘si. Bu omillar zamonaviy notiqlikning ham poydevoridir. Pedagogik metodikada esa nutqiy salohiyatni shakllantirishda interaktiv metodlarga tayanish alohida e‘tiborga molik. Chunki talaba faqat tinglovchi emas, balki nutqiy faol ishtirokchi bo‘lishi uchun darslarda bahs-munozara, rol o‘ynash, debat, keys-stadi, “klaster” yoki “aql hujumi”

kabi metodlar samaradorlikni keskin oshiradi. Bunda o'qituvchining o'zi ham "namuna" sifatida o'z nutq madaniyatiga e'tiborli bo'lishi lozim. Chunki o'qituvchi so'zning kuchini o'zi orqali namoyon etadi, ayniqsa og'zaki muloqot, didaktik nutq, motivatsion til, savol-javoblar, yakunlovchi gaplar talaba ongida chuqur iz qoldiradi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bugungi globallashuv davrida talabalar ko'proq qisqa, tez, emotsional, ta'sirchan va ma'lumotga boy nutqlarga ehtiyoj sezmoqda. Shuning uchun ham notiqlikni zamonaviy vositalar - raqamli taqdimotlar, video nutqlar, "storytelling", "pitch" usullari orqali ham o'rgatish zarurdir. Chunki bugun so'z - faqat eshitiladigan emas, balki ko'riladigan, baholanuvchi va tez tarqalayotgan hodisaga aylangan. Demak, nutq madaniyati va notiqlik mahoratini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayon chuqur nazariy asos, metodik tafakkur, o'qituvchining nutqiy saviyasi, amaliy tajriba va zamonaviy kommunikativ vositalarni birlashtirgan holda tashkil etilishi zarur.

Ta'lim jarayonining zamonaviy bosqichida o'quvchi yoki talaba shunchaki bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni faol o'zlashtiruvchi, mustaqil tahlil qiluvchi, o'z fikrini erkin bayon etuvchi shaxs sifatida shakllanishi pedagogik strategiyaning bosh maqsadiga aylangan. Ayniqsa, global axborot maydonida shaxsiy fikrga ega bo'lish, uni ta'sirchan tarzda ifoda etish, muhokama qilish va dalillash qobiliyatlari — ya'ni notiqlik va nutq madaniyati — har bir yosh mutaxassis uchun muhim shartga aylandi. Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishda interaktiv metodlar o'zining pedagogik va kommunikativ samaradorligi bilan ajralib turadi. An'anaviy darslarda ko'p hollarda o'qituvchi markazda turadi, talabalar esa tinglovchi sifatida passiv bo'lib qoladi. Interaktiv metodlarda esa o'quvchi o'qituvchining teng hamkori, fikr almashinuvi ishtirokchisi, ya'ni nutqiy va tafakkuriy faoliyatga to'liq jalb etilgan shaxsga aylanadi. Interaktiv metodlar ta'lim mazmunini insoniy muloqot, emotsional aloqa, ijtimoiy faollik va fikrning erkin ifodasi bilan boyitadi. Masalan, "Debat", "Rol o'ynash", "Bahsli munozara", "Fishbone", "Aql hujumi", "Klaster", "Keys-stadi" va "Press-konferensiya" metodlari orqali talabalar nafaqat bilim oladi, balki muloqot qilish, fikr bildirish, dalil keltirish, javob berish va tanqidga nisbatan madaniyatli munosabat bildirishni o'rganadi.

"Debat" texnologiyasi eng kuchli notiqlik vositalaridan biri hisoblanadi. Bu metodda talabalar ikki yoki undan ortiq guruhga bo'linadi, muayyan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy yoki axloqiy mavzu bo'yicha o'z pozitsiyasini himoya qiladi. Jarayon davomida ular fikrni strukturaviy tuzish, tanqidiy tahlil qilish, savollarga lo'nda javob berish, tinglovchini ishontirish, pauza, ohang, urg'u kabi nutqiy komponentlardan foydalana boshlaydi.

"Rol o'ynash" (rol o'yinlari) usuli esa notiqlikni shakllantirishda emotsional holatni yaratish, kontekstga kirish va ijtimoiy rolni tushunish imkonini beradi. Talaba,

masalan, sudyani, advokatni, o'qituvchini yoki jurnalistni gavdalantiradi. Bu jarayonda u real hayotdagi muloqotda qanday nutq turlarini qo'llash, qanday til vositalari orqali auditoriyani ishonitirish, qaysi hollarda hissiy ta'sir kuchli bo'lishini tajriba asosida anglaydi. "Keys-stadi" (vaziyatli tahlil) metodi orqali esa talabalar murakkab ijtimoiy holatni muhokama qiladi. Misol uchun, bir talabaning ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri fikr bildirishi yoki noto'g'ri nutq namunasini baholash orqali ularning notiqlik, fikr bildiruvchanlik va madaniy javobgarlik kompetensiyasi shakllanadi.

Nutq madaniyati nafaqat og'zaki, balki yozma muloqotda ham yuksak darajada bo'lishi lozim. Bu borada "Klaster", "Venn diagrammasi", "Assotsiativ xaritalar" kabi metodlar fikrni tuzishda yordam beradi. Ular orqali talabalar matn yozish, rejalar tuzish, matn strukturasini tushunish, fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni anglashni o'rganadi. Bu esa og'zaki nutq uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Interaktiv metodlar orqali nutqiy kompetensiyani shakllantirishda o'qituvchining roli faqat tashkilotchilikdan iborat bo'lmasligi kerak. U har bir talabaning fikrini diqqat bilan tinglaydigan, rag'batlantiradigan, savollarni tahliliy tarzda qayta yo'naltiradigan, nutqdagi kamchiliklarni muloyimlik bilan ko'rsatadigan, eng muhimi — o'zi namunali nutqqa ega bo'lgan shaxs bo'lishi lozim. O'qituvchining og'zaki nutqi, intonatsiyasi, tana tili, mimikasi, ovoz nazorati talaba uchun bevosita "yashash darsi"dir.

Bugungi kunda interaktiv metodlarning raqamli vositalar bilan uyg'unligi ham alohida e'tibor talab qiladi. "Mentimeter", "Padlet", "Kahoot", "Flip", "Quizizz" kabi ilovalar yordamida talabalar o'z fikrini yozma va og'zaki shakllarda bildiradi, ovoz yozuvi, mini video chiqishlar, virtual munozaralar orqali kommunikatsiyaga kirishadi. Bu metodlar raqamli notiqlik (digital oratory) kompetensiyasini shakllantiradi. Ushbu metodlar faqat auditoriya ichida emas, balki auditoriyadan tashqaridagi mashg'ulotlarda, "erkin mikrofon" tadbirlarida, talabalar klublari, TEDx uslubidagi chiqishlar, ijodiy bellashuvlar, "o'z ustingdagi nutqiy ishlar" dasturlarida amaliy asosda keng joriy etilmoqda.

Shu o'rinda, interaktiv metodlar natijasida quyidagi asosiy nutqiy ko'nikmalar shakllanadi:

- Fikrni mantiqiy ifodalash,
- Savollarga aniq, qisqa va dalilli javob qaytarish,
- Notiqona ohang, urg'u, pauza, intonatsiya vositalaridan foydalanish,
- Emotsional nutq qurish,
- Auditoriyani his qilish va boshqarish,
- Estetik ifoda va ijtimoiy muloqot etikasi.

Shunday qilib, interaktiv metodlar zamonaviy shaxsda faqat bilim emas, balki muloqot, o'zini ifoda etish, bahs madaniyati, kommunikativ salohiyat va notiqlikni shakllantirishda ajralmas didaktik vosita hisoblanadi. Ular shaxsning jamiyatdagi

ijtimoiylashuvi, ijtimoiy ongining o'sishi, axborotga nisbatan tanqidiy munosabati va madaniy saviyasi shakllanishida hal qiluvchi omildir.

Xulosa: Didaktik o'yinlar bugungi pedagogik jarayonlarda talabalarning notiqlik mahoratini rivojlantirishda kuchli va natijador vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bunday o'yinlar oddiy interaktiv mashg'ulotlar emas, balki nutqni anglash, ongli muloqotga kirishish, auditoriyani sezish, hissiy ta'sir o'tkazish va argumentatsiyalash qobiliyatlarini chuqurlashtiruvchi ko'p qirrali metodik texnologiyadir. O'zining ko'rgazmali, faol va bahsli tabiati bilan didaktik o'yinlar talabalarni bevosita faol nutqiy jarayonga jalb qiladi, ularni so'z ustasi bo'lish sari bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

Notiqlik san'ati nafaqat fonetik, leksik yoki grammatik bilimlar yig'indisi, balki fikrni puxta asoslab ifodalash, psixologik barqarorlikni saqlagan holda tinglovchini ishonitirish, estetik nutq vositalaridan foydalanish, ehtirosli va ichki hislar bilan gapirish, tinglovchining kayfiyatini seza olish kabi murakkab ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalar majmuasidir. Aynan shu jihatdan qaraganda, didaktik o'yinlar orqali notiqlikni shakllantirish biryo'la shaxsning ijodiy tafakkuri, jamoaviy muloqoti, etika va psixologik barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, didaktik o'yinlar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar nutqni faollashtirish, talabaning ichki nutq barerlarini yengish, auditoriyaga murojaat qilish madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda notiqlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan metodik ishlanmalar (masalan, rolli o'yinlar, bahsli treninglar, "intervyu" o'yinlari va debat formatlari) bugungi kunda pedagogik innovatsiyalar tizimida o'z o'rnini topmoqda. Bundan tashqari, hozirgi zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalar sharoitida didaktik o'yinlar multimediamiy, virtual va gamifikatsiyalashgan shakllarda ham qo'llanilmoqda. Bu esa o'quv jarayonining emotsional, vizual va funksional jihatdan boyitilishiga olib keladi. Raqamli vositalar bilan birlashtirilgan didaktik o'yinlar orqali talabaning so'z boyligi, nutq tezligi, sahnaviy chiqish madaniyati va nutqni boshqarish salohiyati yuksaladi.

Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida notiqlik kompetensiyasini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish faqat dars jarayonigina emas, balki auditoriyadan tashqari faoliyat, klublar, festival va mahorat darslarida ham tizimli ravishda yo'lga qo'yilishi lozim. Bu jarayonni yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni amaliy tavsiya sifatida ilgari surish mumkin:

- Har bir mutaxassislik bo'yicha maxsus "notiqlik kompetensiyasi" moduli ishlab chiqilishi;
- Didaktik o'yinlar repertuari muntazam boyitilishi va zamonaviylashtirilishi;
- Pedagog kadrlar uchun notiqlikni didaktik o'yinlar asosida rivojlantirish bo'yicha metodik qo'llanmalar tayyorlanishi;
- O'yinli metodikalar asosida maxsus "notiq talaba" musobaqalari tashkil etilishi;

- O‘qituvchilar malaka oshirish kurslariga notiqlik va o‘yin pedagogikasi bo‘yicha bloklar kiritilishi.

Zero, bugungi globallashgan va kommunikatsiyaga asoslangan jamiyatda so‘z -bu bilim emas, balki ta’sir, yetakchilik va o‘zgarish vositasidir. Talabaga so‘zlash madaniyatini, notiq sifatida o‘z fikrini jasorat bilan bildirishni, boshqalarni ishonitirishni va madaniyatli bahs yuritishni o‘rgatish -bu o‘qituvchining nafaqat kasbiy, balki fuqarolik majburiyatidir. Didaktik o‘yinlar esa bu yo‘ldagi eng qudratli va tabiiy vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo‘minova Z. *Pedagogik muloqot asoslari*. - Toshkent: O‘qituvchi, 2021. - 42-45-bet.
2. Nishonova S.A. *Notiqlikni rivojlantiruvchi o‘yinlar*. - Toshkent: Fan, 2019. - B. 32-38.
3. JDPU. *Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi*. - Jizzax: JDPU, 2021. - B. 50-55.
4. Mo‘minova Z. *Pedagogik muloqot asoslari*. - Toshkent: O‘qituvchi, 2021. - B. 35-41.
5. Niyozmetov S., Toshpulatova G. *Innovatsion pedagog texnologiyalar*. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. - B. 51-57.
6. Musurmonov N.A. (2021). *Ta’limda innovatsion metodlar*. Toshkent: TDPU nashriyoti. -56-59-betlar.
7. Saidov N.S. (2020). *Muloqot va interfaol metodlar asoslari*. Toshkent: Innovatsiya. -44-47-betlar.